



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TERMIN TERMINOLOGIK SISTEMANING ASOSI

Sevinova Diyora Uyg'un qizi
Farg'ona davlat universiteti, doktoranti

Annotatsiya

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlikkabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Avvalo terminlar hosil bo'lish asoslarini o'rganmoq lozim. Mazkur maqolada termin larning metafora usuli bilan paydo bo'lish asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, lug'at, metafora, nom, tushuncha.

ОСНОВА ТЕРМИНА ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА

Севинова Диёра Уйгун кизи
Ферганский государственный университет, докторант

Аннотация

Известно, что уровень развития и совершенствования каждой научной области неразрывно связан с такими признаками, как степень развития и упорядоченность терминологии этой области. Ведь если используемый в научной литературе термин или его форма выражения не являются ясными и однозначными, то, конечно же, останутся негативные ситуации, такие как путаница и двусмысленность. Прежде всего, необходимо изучить основы терминообразования. В данной статье рассматриваются основы возникновения терминов посредством метафоры.

Ключевые слова: термин, терминология, словарь, метафора, название, понятие.

BASIS OF THE TERM TERMINOLOGICAL SYSTEM

Sevinova Diyora Uyg'un qizi
Fergana State University, Doctoral Student

Abstract

It is known that the level of development and improvement of each scientific field is inextricably linked to such signs as the degree of development and regulation of the terminology of this field. Because if the term used in scientific literature or its form of expression is not clear and unambiguous, then, of course, negative situations such as confusion and ambiguity will remain. First, it is necessary to study the basics of the formation of terms. This article covers the basics of the emergence of terms by metaphor.

Keywords: term, terminology, dictionary, metaphor, name, concept.

XXI asr fan va texnikaning jadal taraqqiy etgan davri bo'ldi. Shuningdek, yuzlab yangi fan sohalari vujudga keldi, qadimiylari esa taraqqiy etdi yanada takomillashdi. Bu fan va ularning sohalari rivojlanishi termin sistemasining o'sishiga ham turtki bo'ldi. Terminologiya (termin va ... logiya) — 1) leksikanutg bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish. Tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir

sohaga oid maxsus leksika. Masalan fizika terminologiyasi, ijtimoiy siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. Uz navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fannatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalo'tkazgich — nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. Termin va terminologiya tushunchalari fanda asosiy hisoblanadi; atama ilmiy fikrning aniqligi, ravshanligi va tushunilishini ta'minlaydi. Biroq, ushbu tushunchalarning ilmiy bilimlar tizimidagi eng muhim o'rni va ko'plab tadqiqotlariga qaramay, terminologiyaning bir qator fundamental masalalari bo'yicha haligacha konsensus mavjud emas: masalan, atamaning umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q. Atamaga qo'yiladigan talablar, uning grammatik ifodasi haqida bahs-munozaralar bor, atamalarining til tarkibidagi o'rni masalasi hal etilmagan va hokazo. Terminologiya – bu shaxsning kasbiy faoliyatining turli sohalarini ob'ektlari va tushunchalarini nomlaydigan va odatda qo'llanilmaydigan so'z va iboralarni o'z ichiga olgan maxsus lug'atning bir qismi. Maxsus maqsadlar uchun tilning asosiy komponenti sifatida maxsus lug'atni har tomonlama o'rganish XX asrda boshlanadi. Terminologiya maxsus lug'atning eng muhim qismi sifatida XX asr boshidan faol o'rganilmoqda. Bu lug'atning alohida sohasi ekanligi ayon bo'ladi. Zamonaviy rus tilshunosligida atamani lingvistik kategoriya sifatida tushunish va o'rganishning asosiy muammolaridan biri uning ta'rifidir. Termin va terminologiyaning xususiyatlarini o'rganish jarayonida “termin” tushunchasiga juda ko'p ta'riflar to'plangan. A. V. Superanskaya «termin» tushunchasining turli talqinlarining mavjudligini, birinchi navbatda, «...turli fanlar vakillari uchun u o'ziga xos maxsus tushuncha va g'oyalar bilan bog'langanligi, mazmuni teng bo'lmagan miqdorga ega bo'lishi va aniqlanganligi bilan izohlaydi. Biroq, atamaning barcha mantiqiy ta'riflarida birinchi navbatda uning tushuncha bilan bog'liqligi ilgari suriladi. Taqqoslang: “Terminlar maxsus so'zlar bo'lib, o'zining maxsus maqsadi bilan chegaralanadi; tushunchalar va narsalarni nomlashning aniq ifodasi sifatida bir ma'noli bo'lishga moyil bo'lgan so'zlar” “Termin – lisoniy belgisi fan va texnikaning ma'lum bir sohasi tushunchalari tizimidagi tegishli tushuncha bilan bog'langan so'z (yoki ibora)” “Termin – bu maxsus tushunchalarni to'g'ri ifodalash va maxsus mavzularni belgilash uchun yaratilgan (qabul qilingan, qarzga olingan va hokazo) maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) tilning so'zi yoki iborasi” ; “Termin – bu fan va texnikaning ma'lum bir sohasi tushunchalari tizimida tovush belgisi va u bilan bog'langan tegishli tushunchaning birligi bo'lgan so'z (yoki so'z birikmasi)”

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, atamaning ma'lum bir ilmiy tushunchani belgilash qobiliyatiga asoslanib, biz uni uning eng muhim belgisi deb hisoblaymiz: “termin uchun atalgan tushuncha bir vaqtning o'zida nomlangan ob'ektidir, ya'ni.

“nom- tushuncha” aloqasi ustunlik qiladi. Termin ortida doimo fikr mavzusi turadi, lekin umuman fikr emas, balki ma’lum bir soha bilan chegaralangan maxsus fikr”. Terminlarning o‘zaro munosabatida bir-birini to‘ldirib turishida lingvistik metafora muhim rol o‘ynaydi. Terminlarning bu yo‘l bilan ko‘payishi, ularning malum fan sohasi ehtiyojini uchun zarurdir. Takidlash joizki, metafora hodisasi ikki ming yildan buyon filologiyada o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa ham, bu hodisa badiiyat, stilistika, ritorika doirasidan chiqarilmagan. Yana ham aniqlashtirsak, o‘tgan asrda metafora hodisasi fanga, fan tiliga, terminologik sistemaga yot hodisa deb qaralgan. Fikrimning isboti sifatida, atoqli ispan adibi Xose Ortega Gassetning “Ikki buyuk metofora” nomli maqolasidagi quyidagi jummalarni keltirsam, “tafakkurning quroli, ilmiy fikrning shakli” deb nomlaydi. Metafora fan sohasida ikki xil shaklda namoyon bo‘lishini quyidagicha izohlaydi. Olim hali fan sohasiga ma’lum bo‘lmagan bir hodisani kashf etar ekan, albatta uni nomlashi zarur. Mutlaq yangi so‘z til egalari ga hech narsa bera olmaydi., shuning uchun olim tarkibidagi har bir so‘z tegishli ma’no bilan birikkan mavjud so‘z boyligidan foydalanishga majbur. Tushunarli bo‘lishi uchun olim ma’nosi yangi tushunchaga olib boorish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘zni tanlaydi. Saqlanib qoladigan eski ma’no vositasida, uning yordamida bu so‘z (termin) yangi ma’no kasb etadi. Bu esa metaforaning ayni o‘zidir. Adibning kuzatishicha, metaforaning ikkinchi xil qo‘llanishi ko‘proq psixik, abstract tushunchalarni ifodalashi bilan bog‘liq. Psixik obyektlarning nomlashgina emas, ularni tasavvur qilish ham qiyin ularning shakli o‘lchovlari yo‘q. Masalan, “qalbning tubi” tub so‘zi ifodalagan joyni, ma’no konkret tasavvur qilish qiyin, albatta bu so‘z idishning tubi da anglatgan joy aniq, ayni so‘z tegishli assotsiatsiya asosida psixik obyektga ko‘chirilgan va uni tasavvur qilishga imkon yaratgan. Adibning takidlashicha, huddi shu yerda metaforaning bilishdagi teran va muhim vazifasi namoyon bo‘ladi, metafora nomlash va ifodalash vositasi emas, ayni paytda tafakkurning muhim quroli ekanligi” ko‘rinadi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan, idrokka birdab hosil bo‘lmaydigan tushunchalarni o‘zlashtirish uchun o‘zimizga tanish bo‘lgan obyektlar, tushunchalar metafora yo‘li bilan beminnat yordamchi bo‘ladi. Adibning tiniq va Ravshan tabiri bilan aytganda, metafora aqlning “qo‘li”ni uzun qiladi; uning mantiqdagi o‘rni qarmoqqa yoki miltiqqa “o‘xshatilishi mumkin. Aytish joizki, metafora dunyoni bilishning eng qudratli qurollaridan biri ekan, fan tili bu hodisaning abadiy makonidir. Fan tili asosini terminlar tashkil qilishi, terminlar fan tili asosini ustunlari ekanligi ma’lum. Bir necha tilshunos olimlar ta’kidlagandek termin olamning ilmiy-lisoniy manzarasining qayd qilishning asosiy usulidir. Terminlar yuzaga kelishidagi murakkab jarayonlarda metafora, shaksiz, muqim o‘rin tutadi. Yorqin badiiy so‘zning tug‘ilishida metafora qanchalik muhim o‘rin tutsa, aksariyat terminlarning namoyan bo‘lishida bu hodisa undan kam faol rol kasb etmaydi. G‘arb tilshunoslarining fikricha fanda metaforaga bo‘lgan ehtiyoj poeziyadan kam emas.

Muayyan fan sohasidagi muayyan bir termin bir ma’noli bo‘lishi ya’ni bir tushunchani ifodalashi kerakligi haqidagi qarash terminshunoslikda barqarorlashgan fikrdir. Albatta buning asosi bor. Ammo mustasno holatlarni ham kuzatish mumkin. Turli fan sohalarida uchun qo‘llanilayotgan terminlar nuqtayi nazaridan qaraganda o‘zro metaforik ko‘chim aks etadi. Masalan, morfologiya terminini olib tahlil qilsak, bu termin dastlab odam, hayvonlar, o‘simliklar organizmining shakli va tuzilishini o‘rganadigan fanlar majmuyini ifodalash uchun xizmat qilgan. Mazkur morfologiya termini aynan metafora asosida tilshunoslikka olib o‘tilgan, yani grammatikada so‘z tuzilishi, so‘z o‘zgartiruvchi shakllarni, so‘zlarni turkumga xoslanishi belgilaydigan bo‘lim, so‘z shakllari haqidagi ta’limotdir. yoki assimillatsiya termini biologiyada o‘simlik yoki jonivor faoliyati jarayonida tashqaridan moddalar almashinishi, singishi, o‘zlashtirilishidir, tilshunoslikda ham bu termin mavjud bo‘lib biror bir tovushning boshqa bir tovush tasirida moslashishi, o‘zgarishidir. Hozirgi vaqtda bu terminlar tilshunoslikdagi faol terminlar qatoriga kiradi. Tilshunoslikda turli fan sohalaridan metafora asosida ko‘chirilgan simmetriya, assimetriya, maydon, valentlik, o‘zak kabi ko‘plab terminlar fanlar aro omonimik

terminlar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda , metaforalar ilmiy bilishning o'ziga xos quroli bo'lib ,turli fanlarlar terminografiyalarining shakllanishida asosiy va mahsultor omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вардзелашвили Ж. Кўрсатилган мақола. *Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры / Теория метафоры. М.: Прогресс, 1990. С. 68-81.
2. Некрасов С.И., Некрасова Н.А. Философия науки и техники: тематический словарь-справочник. Орёл: ОГУ, 2010.2013/№ 4
3. Павлова М. Метафоры и когнитивные науки"/ <http://dsd.chat.ru/T13.HTM>
4. Чернышова Л.А. Отраслевая терминология в свете антропоцентрической парадигмы. М.: МГОУ, 2010. С. 158.
5. Madvaliyev .A О 'zbek terminologiyasi va leksikografiya masalalari.-О 'zbekiston milliy ensiklopediyasi
6. О'zbek tilining izohli lug'ati .A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008)